

SHAXSNING KASBIY FAOLYATIDA DIQQATNING O‘RNI.

Qodirova Manzura Iftihorjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” yonalishi 102-gurux talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning kasbiy faolyatida diqqatning o‘rni va diqqatning sezish jaroyonida, idrok qilishda, xotira, xayol va tafakkur jaroyonlarida har doim ishtirok etishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Diqqat, shaxs, pedagog, bilish jaroyonlari, ong, adabatsiya, individ.

Diqqat kishi faolyatining barcha turlari, eng avvalo, mehnat o‘quv faolyati samaradorligi muhim hisoblanadi. Insonlar teverak atrofdagi ko‘plab ta’sirlar orasidan kishi hamisha nimanidir idrok qiladi, nimanidir faraz qiladi, nimadir haqida fikr yuritadi. Ongning muhim xossasi diqqat kabi xususiyat bilan bog‘liqdir. Diqqat tushunchasi psixolog olimlar tomonidan bir qator ta’rif keltirgan. Xususan, psixolog P.I. Ivanov tomonidan diqqat deb – ongni bir nuqtaga to‘plab muayyan bir obyektga faol qaratilishi hisoblanadi. Diqqat shunday muhim jarayondirki, u odamning barcha faolyatlarida albatta ishtirok etadi. Diqqatning muhim tamoni uning bir faolyat turidan boshqa bir faolyat turiga o‘tishidir. Shaxsda diqqatni jamlash ko‘p hollarda o‘qituvchilarda, pedagoglarda, haydovchilarda asosan katta o‘rin egallaydi. Pedagoglar tarbiyalanuvchilar, o‘quvchilar va talabalarni diqqatini jamlashda 45 minut 80 minut bir me’yorda ushlab turishi va qiziqtirishi lozim. O‘quvchilarda bu jarayon irodaviy zo‘riqmagan holda ro‘y berish kerak. Diqqatning o‘ziga xos xususiyatlariga uning kuchi va barqarorligi, eng murakkab faolyatni ham diqqatning ishtirokisiz bo‘linishi, kulami parishonxotiralik, taqsimlanishi kabilar kiradi. Parishonxotirlik diqqatning sabiy tamoni tashkil etadi. Parishonxotirlik deganda ko‘pincha ishga nihoyat berilib ketish tushuniladi. shunday paytda odam atrofdagi narsalar mutloqa payqamay qoyadi. Bolalarda parishonxotirlik tez-tez uchraydi. Shaxs kasb tanlashda diqqatni o‘rni katta hisoblanadi. Kasblar juda ham ko‘p, lekin ularni egallashda qiyinchiliklar, mashaqatlar uchraydi. Diqqatning bilish jaroyoni uchun ahamyati alohida ta’kidlab o‘tish lozimdir. Diqqat sezish jaroyonida, idrok qilishda, xotira, xayol va tafakkur jaroyonlarida har doim ishtirok etadi. Diqqat barcha aks etish jaroyonlarimizning doimiy yo‘ldoshidir. Diqqat barcha psixik jaroyonlarimizda qatnashsa ham, lekin diqqatning o‘zi hech narsani aks etmaydi. Odam biron narsaga zo‘r diqqat bilan kirishgan paytida uning tashqi qiyofasida ayrim o‘zgarishlar ko‘zga tashlanadi. Diqqat qaratilgan narsani yaxshi idrok qilish uchun unga muvofiqlashiga urinishdan iborat harakatlar (tikilib qarash quloq olish) qilinadi. Yana ortiqcha harakat to‘xtaydi. Jiddiy diqqatning xususiyatlaridan biri qimirlamasdan jim turishidir. Bunga misol: auditoriya va teatr zalidagi jimlik diqqat vaqtidagi harakatsizlik natijasi bo‘lib, bu jimlik odamlar ma’ruzachini yoki artistni zo‘r e’tibor bilan tinglashyotgani anglatadi. Kuchli diqqat paytida kishining nafas olishi sekinlashib va pasayib qoladi. Shaxs kasbiy faolyatini puxta egalashda diqqat jarayoni muhim hisoblanadi. Inson ayrim narsalarga o‘z diqqatini ongli ravishda o‘zi hohlab qaratsa, boshqa bir narsalar diqqatini beixtiyor ya’ni bizning hohishimizdan tashqari jalb qiladi. Shunga diqqat ikki turga bo‘linadi: Ixtiyorsiz diqqat- rejasiz, maqsadsiz, iroda kuchisiz ongni biror ob’ektga to‘planishi.

Ixtiyoriy diqqat-reja maqsad iroda kuchi bo‘ladi. Odamlarning ko‘pchilik faolyatlari asosan ixtiyoriy diqqatning ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun barcha faolyat turlarida, ya’ni o‘qish, o‘yin va mehnat faolyatlarida ixtiyoriy diqqatning ro‘li nihoyat ahamyatli. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatga nisbatan uzoq vaqt mobaynida davom etadigan diqqat turi bo‘lib, u zo‘r berishlikni, ya’ni irodaviy kuch sarf qilishlikni talab qiladi. Shuni aytish lozimki, ixtiyoriy diqqat har doim ixtiyorsiz diqqat bilan almashinib turadi. Ixtiyoriy diqqat vaqtida odam tez charchaydi, chunki ixtiyoriy diqqat odamdan hamma vaqt iroda kuchini sarflashni talab qiladi. Iroda kuchini sarflashni orqali, ya’ni odam o‘zini majbur qilish orqali diqqatni safarbar qilishi odaamni charchatadi. Ixtiyorsiz diqqat esa hech qanday irodaviy kuch sarflash talab etilmaydi. Shaxsni kasb faolyat egallashida diqqatning ixtiyoriy to‘planganligi emas, balki uning mazmuni va jarayonning o‘zi qiziqarliligi va ahamyatli bo‘lsa ixtiyordan so‘nggi diqqat deb tushunish mumkin. Bu holda faolyat kishini shu qadar qiziqtirib yuboradiki, u diqqatni obyektga qaratish irodaviy kuch sezirali darajada sarflash shart bo‘ladi. Shaxs

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

o‘zi qiziqqan kasbiy faolyatni o‘rganishda dastvval irodaviy kuch-g‘ayrat madadiga tayangan diqqat ixtiyordan so‘ngi diqqatga aylanadi. Ixtiyordan so‘ngi diqqat biror narsaga uzoq vaqt davomida juda barqaror qaratilishiga bilan belgilinadi, ko‘proq yuqori darajadagi jadal va unumli aqliy faolyatning barcha turdagi mehnatning yuksak unumdorligini asosli ravishda ana shunday diqqatning turi bilan bog‘liq hisoblanadi. Odamlarning diqqati bir qancha xususiyatlariga ega bo‘lib, ulardan asosiylari-diqqatning kuchi va barqarorligi, diqqatning ko‘lami, bo‘linuvchanligi, ko‘chuvchanligi iborat.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Insonlarda diqqatning xususiyatlari hammuda har xil nomoyon bo‘ladi. Shunday qilib, diqqatning asosiy xususiyatlari insonlarning faqatgini kasbiy faolyatgina emas, balki barcha turdagi faolyatlari uchun muhim o‘rin egallaydi. Diqqatning bu asosiy xususiyatlari tug‘ma berilmaydi irsiy ham o‘tmaydikan. Bu xususiyat insonlarning yoshlik chog‘idan boshlab turli faolyat o‘yin, o‘qish mehnat faolyatlari jaroyonlari orqali tarkib topadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. M.X.ASRANBAYEVA, D.D.ORIBBOYEVA, D.D.BOYMIRZAYEVA “Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi” Toshkent “Tafakur avlodi” 2023

2. F.I. XAYDAROV, N.I.XALILOVA. “Umumiy psixologiya” Toshkent” INNOVATSIYA-ZIYO 2019

3. <https://azkurs.org/diqqat/-va-uning-xususiyatlari.html?page=4>

4. <https://www.savol-javob.com/diqqat-va-uning-xususiyatlari>